



ONA TILIDAN O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Nuriddinova O'lmasoy

*Yangi asr universiteti maktab va maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti v.b,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Annotatsiya : Ushbu ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi shundan iboratki, ona tili fani ta'limi tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini oshirish orqali ularning tarbiyaviy, ma'naviy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalash, shuningdek, ularning nutq boyliklarini oshirish, nutq madaniyatlarini shakllantirish, ona tiliga, milliy qadriyatlariga mehr-muhabbat uyg'otish: Mazkur maqsadni ko'zda tutgan holda loyihalash metodi orqali ularni badiiy matn bilan ishlashga o'rgatish, fikrlarini erkin bayon qilish yoki yozma nutq shaklida bo'lsa ham ravon nutq, matn yaratishga rag'batlantirishdir.

Abstract. The main goal of our scientific research is to raise students to become mature people in educational and spiritual terms by increasing their reading literacy in the mother tongue science education system, as well as to increase their speech skills, to form speech cultures, to the mother tongue, instilling love for national values: with this goal in mind, teaching them to work with artistic text through the design method, encouraging them to freely express their thoughts or to create fluent speech and text, even if it is in the form of written speech.

Аннотация. Основная цель наших научных исследований – вырастить учащихся как зрелых людей в образовательном и духовном плане путем повышения их читательской грамотности в системе естественнонаучного образования на родном языке, а также повысить их речевые навыки, сформировать речевые культуры, к материнскому языку. языка, прививая любовь к национальным ценностям: с этой целью учить работать с художественным текстом методом оформления, поощрять свободно выражать свои мысли или создавать беглую речь и текст, даже если они в письменной форме. речь.

Kalit so'zlar: loyihalash, metod, lisoniy, kreativ pedagogik texnologiya, interfaol, metodika, individual, PISA, PIRLS, TIMS, texnika, korrektsiyalash, modernizatsiya, kommunikatsiya, leksema, tavsifiy, aforizm, frazeologik birlik.

Key words: design, method, linguistic, creative pedagogical technology, interactive, methodology, individual, PISA, PIRLS, TIMS, technique, correction, modernization, communication, lexeme, descriptive, aphorism, phraseological unit.



Ключевые слова: дизайн, метод, лингвистический, творческая педагогическая технология, интерактив, методика, индивидуальный, PISA, PIRLS, TIMS, методика, коррекция, модернизация, общение, лексема, описательный, афоризм, фразеологизм.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga berilayotgan juda katta e'tibor bevosita farzandlarimizning ertasi, kelajagiga qaratilgan e'tibor belgisidir.

“Mashhur faylasuf Rene Dekart “Odamlar so'zlarning o'z ma'nolarini bilib olganlarida edi, dunyoni yarim chalkashliklardan xalos qilgan bo'lar edilar” deb bejizga aytmagan [N.Chiniqulov. qiziqarli grammatika. T-2024 3-bet]

Darhaqiqat, ona tili fani ta'limi ham bugungi kun davr talabidan kelib chiqqan holda samarador usul va metodlarni tadbiq qilishga ehtiyoj sezmoqda.

Ona tili o'qitish metodikasi dastlab so'z bilan ishlaydi.

“ M.A.Rubnikova: “ Metodika-bu vaqtni tejash malakasi, o'quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o'quv materialidagi asosiy va bosh narsani topish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san'ati, bu o'quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta'sir tizimidir. [B.To'xtayev. Adabiyot o'qitish metodikasi. T-2010. 5-bet]

Barcha fanlar negizida ona tili fani yotishini nazarda tutadigan bo'lsak, ona tili ta'limini takomillashtirish bugungi ta'limning bosh mezonlaridan hisoblanadi.

Ayniqsa, jahon miqyosida ta'lim sohasida yetakchi davlatlardan Germaniya, Kanada, Rossiya, Koreya, Yaponiya, Singapur kabi taraqqiyot yuksak davlatlarning ish tajribalari asosida yangidan yangi metod va dars uslublarining kirik kelishi ushbu soha rivoji uchun xizmat qilmoqda.

Xalqaro darajadagi PISA, PIRLS hamda TIMS baholash dasturlariga o'quvchilarimizni tayyorlash uchun eng avvalo ularda matn bilan ishlash texnikasini shakllantirishimiz, lingvotahlil jarayonlari orqali kreativ fikrlashga o'rgatish lozim.

Ta'limni korrektsiyalash, modernizatsiyalash, binobarin, o'qitish metodikasi taraqqiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, qo'llash ta'limda yaxshi samara berishini kuzatish mumkin.

Ona tili ta'limida o'quvchilarni muqoyasa usuli orqali bilan ishlashga o'rgatish ularning iqtidorini ochib berishga, ijodkorlikka, so'z tahlilini his etishga rag'batlantiradi. Shu bois o'quvchilarni so'zga bo'lgan mas'ulligi oshadi, shakllanadi.

Agar tanlanadigan matn adabiyot fani bilan bog'liq bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Chunki adabiyot fani bevosita so'z bilan ishlaydi. Ona tili ta'limida esa ana shu leksemaning ma'no qirralari oydinlashadi, tahlil qilinadi.



Ammo matn tanlaganda matnning maqsadi va g'oyasini ham to'g'ri saralash darkor.

“Matnning maqsadini aniqlash – juda murakkab jarayon. Muallif nazarda tutgan muhim g'oyani idrok-matn, uning qismlari, unda qo'llangan birliklarning mazmun mohiyatini, ramzlarni to'g'ri tushunish bilan bog'liq. Shuningdek, matn tuzuvchining yashash Makoni va vaqti ham bunda muhim hisoblanadi [B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoyeva. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. T-2022, 137-bet]

Demak, matn tanlangach, avvalo, uning mazmuni o'rganiladi. Ma'nosi tahlil qilinadi va muqoyasa qilish uchun loyiha tayyorlash vazifasi o'quvchilarga beriladi.

Bundan maqsad esa o'quvchilarni ijodkorlikka, kreativ fikrlashga o'rgatishdir.

Masalan, sakkizinchi sinf Adabiyot fanidan o'zbekiston Xalq yozuvchisi Asqad Muxtorning “Chinor” romanidan olingan parcha beriladi. Mazkur asarda inson va uning insoniylik fazilati, hayot sinovlari, taqdir, xatolar qurboni haqida gap boradi.

Ona tili dars mashg'ulotlarida yozma ish yoki nazorat ishi mavzularida ana shu asar tahlilini, ayniqsa, lisoniy tahlilini amalga oshirilsa, sakkizinchi sinf o'quvchilari uchun juda katta ham ta'limiy , ham tarbiyaviy jihatdan foydali hisoblanadi.

Buning uchun sinf xonasidagi uch qator o'quvchilar uch xil guruhga bo'linishadi. Har bir guruh o'ziga nom ham tanlashi mumkin. Nom tanlash jarayonida ham ularda ijodkorlik shakllanadi, guruh nomlari badiiyoq bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki, “Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqqa olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning joyaliligi haqida gapirish qiyin [Nizomiddin Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T -2007. 161-bet]

Guruhlar nomlangach, loyiha bo'yicha shartlari o'quvchilarga tushuntiriladi.

Asar matnidan olingan uchta fikr uchta guruh ichida tahlil qilinadi.

1- Guruh nomi	2- Guruh nomi	3- Guruh nomi
Bektemirning gapi: “Toki odamlar meni ko'rishmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin”.	Akbaralining gapi: “endi qochish kerak! Qochish kerak!”	Ochil buvaning gapi: “O'zi ... bandi mo'rt edi. Uchdi-ketdi”
Tahlillar: 1. Bu – Bektemirning uzoq yillik og'ir hayot xulosasi. 2. O'limlarni	Tahlillar: 1. Balki yosh bo'lgani uchun o'limdan qo'rqqandir. 2. Bir zumlik	Tahlillar: 1. Hayotning yozilmagan qonunlari bor. 2. Akbaralining boshqa chorasi yo'q edi.



ham yenggan jasoratli inson falsafasi	qo‘rqoqlik - umriga zomin bo‘ldi.	3. ...
3. ...	3. ...	4. ...
4. ...	4. ...	5. ...
5. ...	5. ...	

[Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. Adabiyot-8-sinf uchun darslik. T-2019, 217-147 bet]

Har bir guruh uchun alohida-alohida jadvallar chiqariladi va tarqatiladi. Jadvallarda fikrlar qancha ko‘p va mantiqan asoslangan bo‘lsa, o‘quvchilarning, ya‘ni guruhning bali oshirib boriladi.

Mazkur topshiriq yozma shaklda bajarilsa, bu topshiriqni og‘zaki nutq o‘stirishni ta‘minlash maqsadida bahs-munozara tarzida ham tashkil etish mumkin.

Bu jarayonda sakkizinchi sinf o‘quvchilari matn turlarini ayniqsa, tavsifiy matn bilan ishlashni o‘rganadilar.

Binobarin, “Ma‘lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta‘riflash, izohlash, isbotlash, asoslash, tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir [N.Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo ‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik. T-2006, 49-bet]

Bunday loyihalar ustida ishlash orqali o‘quvchilar ilmiy tahlillarga, so‘z bilan ishlashga, matnni his etishga, nutq jarayonida maqollar, aforizmlar, frazeologik birliklarni qo‘llashga o‘rganadilar.

Ona tili ta‘limidan ko‘zlangan maqsad ham o‘quvchilarni dunyoqarashi keng, fikrlari teran, nutq madaniyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, ta‘lim berishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Chiniqulov. qiziqarli grammatika. T-2024 3-bet
2. B.To‘xtayev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T-2010. 5-bet
3. B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoyeva. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. T-2022, 137-bet
4. Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T -2007. 161-bet
5. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. Adabiyot-8-sinf uchun darslik. T-2019, 217-147 bet
6. N.Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo ‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik. T-2006, 49-bet